

AHMAD YASSAVIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Abduqodirova Matluba Abduqodir qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasavvuf ilmining yirik namoyandasi, turkiy dunyo ma'naviyati tarixida muhim o'rin tutgan mutasavvif shoir Ahmad Yassaviyning pedagogik qarashlari tahlil etiladi. “Devoni Hikmat” asarida bayon qilingan axloqiy-ma'rifiy g'oyalar, ustoz-shogird an'anasi, komil inson tarbiyasi, ruhiy poklanish (tazkiya), ijtimoiy mas'uliyat, aqliy va ma'naviy tarbiya mohiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Yassaviyning pedagogik merosi bugungi zamonaviy ta'lim konsepsiyasi – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyalarni rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Yassaviy, “Devoni Hikmat”, tasavvuf pedagogikasi, komil inson, ma'naviy tarbiya, axloq, ustoz-shogird, ma'rifat, ruhiy poklanish, qadriyatlar, sufiylik ta'limoti.*

Kirish

Markaziy Osiyo ma'naviy tafakkurining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar ma'naviy tarixi va pedagogik fikr rivojida beqiyos o'rin egallaydi. Uning asarlari, xususan, “Devoni Hikmat” nafaqat diniy-tasavvufiy meros, balki pedagogik ahamiyatga molik boy manbadir. Yassaviy ta'limotining markazida insonning ma'naviy barkamolligi, axloqiy komilligi, jamiyatga foydali bo'lishi, nafsni tarbiyalash va ruhiy yetilish masalalari turadi.

Tasavvufning “komil inson” konsepsiyasi tarixan Sharq pedagogikasining asosiy g'oyaviy o'qlaridan biri bo'lib kelgan. Ahmad Yassaviy bu konsepsiyani turkiy xalqning tili, mentaliteti va hayotiy qadriyatlari bilan uyg'un holda talqin qilgan. Shu bois uning qarashlari nafaqat diniy va ilmiy jihatdan, balki tarbiyaviy-axloqiy nuqtayi nazardan ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar tarbiyasida ma'naviy immunitetni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, shaxs kamolotini har tomonlama ta'minlash kabi vazifalar Yassaviy g'oyalarini qayta tadqiq etish zaruratini oshiradi. Mazkur maqolada Ahmad Yassaviyning pedagogik qarashlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi va zamonaviy ta'lim tizimi bilan bog'liq holda yoritib beriladi.

Asosiy qism

Ahmad Yassaviy qarashlarining asosiy manbai “Devoni Hikmat” bo'lib, unda turkiy tilda yozilgan didaktik-axloqiy pandu-nasihatlar jamlangan. Hikmatlarning mazmuni tasavvufning asosiy bosqichlari - shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat qoidalariga tayangan holda bayon etilgan. Ushbu bosqichlar aslida ruhiy ta'lim tizimi sifatida insonni bosqichma-bosqich kamolotga olib boruvchi pedagogik jarayonni eslatadi.



Hikmatlarda aqidaviy, axloqiy, ma’naviy tarbiya, sabr-toqat, halollik, adolat, shukronalik, mehnatsevarlik, o‘zlikni anglash, nafsni jilovlash singari fazilatlar tarbiyaviy g‘oya sifatida talqin etiladi. Bu esa Yassaviy merosining pedagogik qiymatini yanada oshiradi.

Ahmad Yassaviy ta’limotining muhim unsurlaridan biri – bu ustoz-shogird an’anasidir. U ta’lim jarayonida quyidagi tamoyillarni ilgari suradi:

Ustozning ma’naviy namunasi - shogird uchun eng asosiy tarbiyaviy omil;

Ilmning amaliy takomili - faqat nazariy emas, balki amal bilan mustahkamlanishi lozim;

Sadoqat va halollik - ilm egallashning axloqiy poydevori;

Doimiy ruhiy tarbiya - shogirdning nafsini poklash orqali uni komillikka yetaklash.

Yassaviy fikricha, ustoz - shogirdning nafaqat ilmiy, balki ma’naviy rahbaridir.

Bu g‘oya Sharq pedagogikasida hozirgacha o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Yassaviy ta’limotining markazida komil inson tushunchasi turadi. Uning fikricha, komillik quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi:

Aqliy komillik - ilm, tafakkur, donishmandlik;

Axloqiy komillik - halollik, adolat, sabr, qanoat;

Ruhiy komillik - qalb pokligi, nafsni tarbiyalash;

Ijtimoiy komillik - jamiyatga foyda keltirish, odamlarga xizmat qilish.

“Devoni Hikmat”da ushbu sifatlar o‘ziga xos didaktik ohangda, misollar va ibratli voqealar bilan mustahkamlangan. Mazkur yondashuv Yassaviyning pedagogik uslubini xalqona va tasviriy etadi.

Ahmad Yassaviy ta’limotida axloqiy-ma’naviy tarbiya markaziy o‘rinni egallaydi. Insonning ruhiy poklanishi, qalb tarbiyasi, halollik va adolatga sodiqlik, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi sifatlar Yassaviy hikmatlarining tub mohiyatini tashkil etadi. Uning fikricha, ma’naviy tarbiya avvalo insonning ichki olamida boshlangan jarayon bo‘lib, bu jarayon nafaqat ilm o‘rganish, balki o‘zini tarbiyalash, nafsni jilovlash hamda ichki poklikka intilish orqali kechadi. Yassaviy insonni komillikka eltuvchi eng muhim vosita sifatida qalbiy uyg‘oqlikni ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, aql va ilm bilan birga qalbning uyg‘oq bo‘lishi, insonning o‘z nafsini tanib, uni boshqara olishi chin ma’nodagi ma’naviy yetuklikning sharti hisoblanadi.

Yassaviy hikmatlarida halollik eng oliy insoniy fazilatlardan biri sifatida talqin qilinadi. U halollikni faqat iqtisodiy yoki kasbiy halollik bilan emas, balki axloqiy poklik, fikr va niyat tozaligi bilan ham bog‘laydi. Insonning amali ham, so‘zi ham, niyati ham halol bo‘lmasa, u komillikka erisha olmaydi, deb ta’kidlaydi. Shu bois u hikmatlarida halol mehnatning qadri, o‘z kasbini sidqidildan bajarish, boshqalarga zarar yetkazmaslik, adolatli bo‘lish kabi g‘oyalarni xalqchil uslubda, chuqur ma’naviy mazmun bilan bayon etadi. Bu fikrlar bugungi global ijtimoiy jarayonlar fonida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki yosh avlodni halollik ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir.

Mehr-oqibat va insonparvarlik Yassaviy ta’limotining yana bir muhim bo‘g‘inidir. Uning hikmatlarida insonning boshqalarga yaxshilik qilishga moyil bo‘lishi, muhtojlarga yordam berishi, o‘zgalarning dardini his qila olishi haqiqiy komillik sifatida talqin etiladi.



Yassaviy nazarida, odamzodning qalbi muhabbat bilan to‘lsa, uning amali ham nurli bo‘ladi. Shu bois u nafaqat diniy, balki ijtimoiy ma’noda ham mehr-oqibatning ahamiyatini keng yoritadi. Yassaviy uchun insonparvarlik – bu shunchaki chiroyli so‘z emas, balki amaliy hayot mezonidir. Odamlarga yaxshilik qilish, ularni qadrlash, ularga mehr bilan munosabatda bo‘lish kishi hayotining ma’naviy mazmunini belgilab beradi.

Na onoda rahm qoldi, na otoda,

Og‘o, ini bir-biriga mojaroda.

Musulmonlar da’vo qilur, ichar boda,

Mastlig‘ bilan qarindoshdin tondi, ko‘rung.

Ahmad Yassaviy ushbu hikmatida o‘z zamonidagi ijtimoiy muhitni teran ruhiy nigoh bilan tahlil qilib, jamiyatning ma’naviy inqiroz holatini tasvirlaydi. Bu satrlar, bir qarashda, ijtimoiy tanqid kabi ko‘rinsa-da, aslida chuqur pedagogik mazmunga ega bo‘lib, insoniy fazilatlarining yemirilishi oqibatlarini ko‘rsatish orqali tarbiyaviy ogohlantirish vazifasini bajaradi.

Birinchi misrada “Na onoda rahm qoldi, na otoda” deyiladi - bu jumla jamiyatdagi eng asosiy tarbiyaviy muassasa bo‘lgan oila ichida rahm-shafqatning kamayib ketganini bildiradi. Yassaviy fikricha, tarbiyaning birlamchi manbai - ota-ona qalbidagi mehr va rahm hisoblanadi. Agar ota-onaning o‘zida rahm-shafqat so‘nsa, jamiyatning kelajagi bo‘lgan farzandlar ham mehrsiz, bag‘ritosh, beparvo bo‘lib ulg‘ayadi. Bu satr zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan ham juda muhim fikr: oila muhiti - bola shaxsiyatining shakllanishida eng asosiy omil sanaladi. Shuning uchun Yassaviy bu yerda mehrning yo‘qolishi orqali butun bir ijtimoiy muammoning ildizini ochib beradi.

Ikkinchi satrda “Og‘o, ini bir-biriga mojaroda” deb, aka-uka o‘rtasidagi kelishmovchilik, ixtilof va janjallar tilga olinadi. Buning o‘zi Yassaviy nazarida axloqiy tarbiyaning izdan chiqqanidan dalolatdir. Unga ko‘ra, qarindoshlar o‘rtasidagi mehrning buzilishi - jamiyat tuzilmasining qulash belgilaridan biridir. Yassaviyga ko‘ra, odamlar avvalo oila ichida mehrli bo‘lishi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, bir-biriga tirgak bo‘lishi kerak. Bu qadriyatlar yo‘qolganda, jamiyatning ma’naviy tayanchi ham qulay boshlaydi.

Uchinchi satrda “Musulmonlar da’vo qilur, ichar boda” deyiladi. Yassaviy bu yerda odamlardagi ikkiyuzlamachilikni tanqid qiladi: ular o‘zlarini dindor, e’tiqodli qilib ko‘rsatadilar, ammo amalda dinning eng muhim talablariga zid ishlar qiladilar. “Boda ichish” - tasavvufiy talqinda nafaqat spirtli ichimlik, balki nafs va shahvatga bo‘ysunish, mas’uliyatsizlik, hushyorlikni yo‘qotish, ruhiy beparvolikni ham anglatadi. Demak, Yassaviy odamlarning zohiran dindor, botinan esa ma’naviy hushsiz bo‘lib qolganini ko‘rsatadi. Bu Yassaviy pedagogikasida “zohiriy ilm” va “haqiqiy ilm” farqi bilan bog‘lanadi: inson amal qilmasa, bilimning o‘zi uni kamolga yetkaza olmaydi.

So‘nggi satr “Mastlig‘ bilan qarindoshdin tondi, ko‘rung” fikrlarni yakunlaydi. Yassaviy bu yerda mastlikni - nafsga berilishning ramzi sifatida ishlatadi. Nafs mastligi, jaholat mastligi, o‘zini unutish mastligi - bularning barchasi insonni o‘z asl mohiyatidan, yaqinlaridan, jamiyatdan uzoqlashtiradi. Inson mast bo‘lsa, u oqilona fikrlay olmaydi, o‘z vazifasini unutadi, boshqalarga zarar keltiradi, eng muhimi - o‘zining eng yaqin

qarindoshlariga ham begona bo‘lib qoladi. Bu esa Yassaviy tanqid qilgan ma’naviy inqirozning eng og‘ir ko‘rinishidir.

Ushbu satrlar Yassaviy ta’limotida shunchaki ijtimoiy tanqid emas, balki tarbiyaviy ogohlantirish, ma’naviy uyg‘otuvchilik vazifasini bajaradi. Yassaviy jamiyatda mehr, rahm-shafqat, birdamlik, iymon, poklik kabi fazilatlar yo‘qolayotganini ko‘rib, insonlarni o‘zlarini o‘nglashga, qalb pokligiga qaytishga chaqiradi. Uning fikricha, oila va qarindoshlik rishtalarining uzilishi – ma’naviy inqirozning eng xavfli bosqichi. Shu sababli u hikmatlarida odamlarni hushyor bo‘lishga, qalbini poklashga, nafsdan yiroqlashga va oila-qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashga undaydi.

Yassaviyning ushbu hikmati bugungi kun uchun ham g‘oyat dolzarb. Global o‘zgarishlar, axborot oqimi, yoshlar ongiga turlicha ta’sirlar kuchaygan hozirgi sharoitda oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, ruhiy uyg‘oqlik, oila a’zolari o‘rtasidagi hurmat va birdamlik masalalari har qachongidan muhimroq. Hikmat aslida zamonaviy ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosiy talablariga hamohang bo‘lib, bugungi pedagoglar, ota-onalar va jamiyat uchun chuqur tarbiyaviy xulosalarni taklif etadi.

Nafs yo‘liga kirg‘on kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldin ozib, to‘zib, toyib gumroh bo‘lur.
Yotsa-tursa shayton bila hamroh bo‘lur...

Ahmad Yassaviy ushbu hikmatida tasavvufiy ta’limotning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan nafsni tarbiyalash g‘oyasiga murojaat qiladi. Hikmat mazmuni nafaqat diniy-axloqiy talqin nuqtayi nazaridan, balki pedagogik ma’noda ham g‘oyat dolzarbdir. Yassaviyga ko‘ra, nafs - insonning ojizliklarini, shahvoniy qusurlarini, yomon xulq va mayllarini o‘zida mujassam etuvchi kuchdir. Inson ana shu kuchni jilovlamasa, u ma’naviy halokat yo‘liga kiradi. Hikmatning har bir satri ushbu jarayonning bosqichma-bosqich qanday sodir bo‘lishini o‘ziga xos tarbiyaviy ogohlantirish tarzida bayon qiladi.

Birinchi misradagi “Nafs yo‘liga kirg‘on kishi rasvo bo‘lur” jumlasini Yassaviy ta’limotining tub mohiyatini aks ettiradi. Bu yerda “rasvo bo‘lish” faqat ijtimoiy obro‘ni yo‘qotish degani emas, balki insonning ruhiy tubanlashuvi, o‘z qadrini yo‘qotishi, asl mohiyatidan uzoqlashishi ma’nosini anglatadi. Yassaviy fikricha, nafs insonni o‘z insoniyligini unutishga yetaklaydi; inson ustun bo‘lishi lozim bo‘lgan ruhiy-axloqiy kuchlar pasayib, hayotning ma’naviy mezonlari buziladi. Bu pedagogik nuqtayi nazardan shuni anglatadiki: tarbiya nafaqat bilim berish, balki insonni ichki yomon mayllardan asrash, ijobiy odatlarni shakllantirish jarayonidir.

Ikkinchi satrdagi “Yo‘ldin ozib, to‘zib, toyib gumroh bo‘lur” degan fikr esa nafsga qul bo‘lishning oqibatlarini yanada aniqroq yoritadi. Tasavvuf istilohida “yo‘ldan ozish” - bu Haqiqat yo‘lidan, ya’ni komillik sari eltuvchi yo‘ldan chekinish demakdir. Ta’limiy ma’noda esa bu insonning axloqiy ideallaridan uzilishi, hayotiy maqsadini yo‘qotishi, irodasini boshqara olmaslik holatini anglatadi. Yassaviy hikmatlarida insonning gumroh bo‘lishi - ruhiy beqarorlik, axloqiy inqiroz, o‘zini nazorat qila olmaslikning iboraviy ifodasi bo‘lib, bu holat bugungi davr psixologik-pedagogik adabiyotlarda “axloqiy dezorientatsiya”, “ruhaniy bo‘shliq” kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Demak, Yassaviy bunday ogohlantirishlar orqali



shaxs tarbiyasida maqsadga yo‘naltirilganlik, o‘zini boshqarish, iroda kuchi kabi muhim fazilatlar ahamiyatini ko‘rsatadi.

Uchinchi satrdagi “Yotsa-tursa shayton bila hamroh bo‘lur” degan jumla esa nafsning inson ustidan to‘liq hukmron bo‘lib olishi jarayonini tasvirlaydi. Bu satrni yuzaki talqin qilish mumkin emas; Yassaviy uchun “shayton” - yovuzlik, jaholat, nafs quli bo‘lish, yomon fikrlar va salbiy illatlar timsolidir. Inson nafsning istaklariga berilib boraversa, uning har bir ishi yovuzliklarga yetaklashi, ongini zulmat qoplashi mumkin. Tarbiyaviy ma‘noda bu - insonning yomon odatlarga o‘rganib qolishi, axloqiy nazoratni butunlay yo‘qotishi, o‘zini tuta olmaslik, mas’uliyatsizlik va beparvolik holati bilan izohlanadi. Yassaviy bunday holatni eng xavfli ruhiy qulchilik deb biladi.

Ushbu hikmatning umumiy mazmuni shuni ko‘rsatadiki, Yassaviy uchun komillikka erishish jarayoni avvalo nafsni poklash, uning zararli ta’siridan qat’iy saqlanish bilan bog‘liq. Ushbu fikr zamonaviy pedagogika bilan hamohang bo‘lib, hozirgi kunda ta’kidlanayotgan “o‘zini boshqarish kompetensiyasi”, “emosional intellekt”, “axloqiy ong”, “irodaviy barqarorlik” kabi tushunchalarga juda yaqin turadi. Yassaviy insonni tashqi tartiblarga emas, avvalo ichki tartibga chaqiradi — chunki ma’naviy tartib bo‘lmasa, tashqi intizom ham samara bermaydi.

Shuningdek, Yassaviy ushbu hikmat orqali yoshlarni ruhiy hushyorlikka chaqiradi. U insonning xatti-harakati, xulqi va fe‘l-atvorining tub ildizi ichki dunyosiga borib taqalishini ta’kidlaydi. Demak, haqiqiy tarbiya - bu insonning qalbini tarbiyalash, uning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, yomon mayllardan asrash, irodasini tarbiyalash jarayonidir. Hikmat aynan shu jihatdan kuchli pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, Yassaviy ta’limotining markaziy tamoyillaridan birini ochib beradi.

Ruhiy poklanish Yassaviy qarashlarida eng murakkab va eng yuksak tarbiyaviy jarayon sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon nafaqat diniy ibodatlarini bajarish, balki insonning o‘z nafsiga qarshi doimiy kurashi, xudojo‘ylik, sabr, qanoat, shukronalik, kamtarlik kabi fazilatlarini amalda tatbiq etishi orqali ro‘yobga chiqadi. Yassaviy fikricha, inson o‘z nafsini yengmas ekan, u hech qachon haqiqat nuri bilan yorishmaydi. Shu ma‘noda, Yassaviy hikmatlari o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘zini anglash va o‘z ustida ishlashning betakror pedagogik dasturiga o‘xshaydi. Bu dastur asrlar davomida sharq jamiyatlarida ma’naviy yetuklik mezoni sifatida qo‘llanib kelgan.

Yassaviy ta’limotida ma’naviy tarbiyaning amaliy jihatlariga ham katta e’tibor qaratiladi. Insonning yaxshi xulq bilan yashashi, halol bo‘lishi, odamlarga foydali bo‘lishi, vaqtini behuda o‘tkazmasligi, mehnatsevarlik va kamtarlik uning fikricha har bir shaxsning hayotiy mezoni bo‘lishi kerak. Shu bois Yassaviy ma’naviy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida ko‘radi. Chunki ma’naviy yetuk shaxs jamiyatga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘z atrofida yaxshilik tarqatadi, boshqalarga namuna bo‘ladi.

Xulosa

Yassaviyning pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, ularni axloqiy-komil shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalarga aylangan. Yassaviy qarashlarida ana shunday tarbiyaviy yondashuvning barkamol shakli mujassam. U



insonni faqat bilimli bo‘lishga emas, balki ma’naviy boy, pokiza, mehrlil va halol bo‘lishga chorlaydi. Shaxsning aqliy va ma’naviy kamolini uyg‘un holda rivojlantirish bugungi pedagogik konsepsiyaning ham asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Shu ma’nodagi Ahmad Yassaviy hikmatlari hozirgi yoshlar tarbiyasida qo‘l keladigan kuchli ma’naviy-ma’rifiy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu hikmatlar insonning o‘zini topishi, hayot mazmunini anglash, ezgulikka intilish, jamiyatda o‘z o‘rnini belgilash kabi jarayonlarda yordam beradi. Yassaviy merosining aynan shunday tarbiyaviy qudrati uni bugungi ta’lim jarayonida ham muhim o‘ringa ega qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar.-Toshkent: G‘afur G‘ulom , 1993
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi.-Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati , 2004
3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992 –208 b.
4. M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar “Pedagogika nazariyasi va tarixi” -T., 2006.